

“TAQIQ MEVASI” ROMANINING G‘OYAVIY-BADIIY TAHLILI***Abdurazzoqova Asila****Sharof Rashidov nomidagi**Samarqand davlat universiteti 4-kurs talabasi*

Nazar Eshonqul – zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos uslubi, falsafiy teranligi, obrazlar tizimidagi murakkablik va ramziy yondashuvlari bilan ajralib turuvchi yozuvchilardan hisoblanadi. Adib o‘zbek zamonaviy nasrida falsafiy-psixologik tashqi ko‘rinish bilan uyg‘unlashtirgan yozuvchilardan biridir. Uning asarlari, xususan, "Ta'qiq mevasi" romani orqali o‘zbek nasrida postmodernist yondashuvlar, ontologik muammolar, inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar, ichki ruhiy olam tahliliga bo‘lgan intilishlar ko‘zga tashlanadi.

Ushbu roman o‘zbek adabiyotida inson ongining chuqur qatlamlarini o‘rganishga urinuvchi modernistik asar sifatida ajralib turadi. Ushbu roman orqali muallif odam va gunoh, axloq va vasvasa, ozodlik va erksizlik, ruh va tana kabi yevropacha va sharqona tarkiblarni o‘ziga xos tarzda uyg‘unlashtirishga erishgan.

“Ta'qiq mevasi” an’anaviy syujetli roman emas. Uning syujeti real voqealardan ko‘ra ruhiy voqeliklar asosidagi syujetdir. Asardagi hikoyalar sirtdan real ko‘rinsa-da, aslida bu – inson ruhining ichki ziddiyatlari, gunoh va poklik o‘rtasidagi kurash, vijdon azobining natijalaridir.

Modernistik adabiyotda bu uslub ong oqimi – “ong foydalanish” deb hisoblanadi. Bu metodni Jeyms Joys ("Ulis"), Virdjiniya Vulf ("To‘lqinlar") yoki Marsel Prust ("Yo‘qolganni izlab") kabi mashhur faylasuf, adabiyotshunoslar, yozuvchilar keng qo‘llagan. “Ta'qiq mevasi”da ham syujet ketma-ketligi emas, balki ichki hissiy hodisalar asosiy o‘rinni egallaydi.

Romanning markazida turgan g‘oya – taqiqlangan narsaga bo‘lgan intilish. Bu qadimiy mifologik va diniy g‘oya bo‘lib, birinchi bor Bibliya va Qur’onda odam Ato va Momo Havvo orqali tilga olingan. Nazar Eshonqul bu diniy ramzni ichki axloqiy tanlovga olib chiqadi.

Bu yerda, roman Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo”, Alber Kamyuning “Yabonsiz odam”, Frans Kafkaning “Jarayon” asarlariga hamohang. Har uchala asarda ham asosli obraz insonning o‘z vijdoniga bergan hisobotiga asoslanadi.

“Ta'qiq mevasi” romanidagi gunoh – jismoniy emas, balki ruhiy ifloslik, manfaatparastlik, vijdon oldidagi zaiflik ramzidir. Asarda hech bir qahramon mutlaq yomon emas, ular har biri ichki ruhiy urushda yashashga hukm qilingan.

Roman ramziy-majoziy obrazlarga boy. Bu ramzlar nafaqat natsional diniy ma’noda, balki psixoanalitik va ekzistensialistik darajada talqin qilinadi. Asardagi har bir obraz – Havo, Ma’bud, Malak, “O”, Momo, Iblis, Xosila va boshqalar – faqat

syujetdagi rollari bilangina emas, balki semantik yuklamasi, madaniy arxetiplarga bog'liqligi, ekzistensial mavqelari bilan mustahkam o'rinda turadi. Nazar Eshonqul o'zbek adabiyotida milliy falsafa va jahon modernistik tafakkuri o'rtasida ko'prik yaratgan. Ushbu o'ziga xoslik quyidagi sifatlarda namoyon bo'ladi:

- Monolog va dialoglar orqali ruhiy holat bayon etiladi, bu modernizm uslubiga mos.
- Noaniq yakun – an'anaviy aniq yakun yo'q, o'quvchi o'zi anglaydi.
- Tushlar, timsollar, ruhiy iztirob – bular asarning kompozitsion va semantik jihozidir.

Asarda mifologik motivlar asosiy o'rin tutadi va quyidagicha sharhlash mumkin:

1. “Taqiq mevasi” – arxetip (Arxetip (yunoncha “arkhe” – ibtido, boshlanish + “typos” – qolip, namuna) – bu qadimdan inson ongida shakllangan umumiy, jamoaviy, irsiy obraz yoki timsol bo'lib, u mif, afsona, ertak, diniy matnlar va (adabiyotda takrorlanib keladi) va diniy mif asosida shakllangan adabiy elementlardir. Romanning nomi va asosiy g'oyasi Bibliya va Qur'ondagi “taqiqlangan daraxt” (ya'ni jannatdagi olma daraxti) mifiga tayanadi. Bu mif insoniyat tarixida gunohning chegarasi, ozodlik va erksizlik, axloqiy tanlov timsolidir. Nazar Eshonqul mifni bu zamonaviy talqinda qayta ishlaydi: “meva” bu yerda jismoniy tekshirilgan narsa, balki nafs, foydaparastlik, ruhiy halokatga olib boruvchi istak ramzidir.

2. Qahramonlar – mifologik arxetip sifatida quyidagicha namoyon bo'ladi: Asardagi bosh qahramonlar arxetipal obrazlarga ega: Bola – hokimiyat, axloq, kuch timsoli; Ayol – vasvasa, istak, gunoh ramzi.

Bu faylasuf Karl Gustav Yungning jamoa ongsizlik (коллективное бессознательное) nazariyasiga juda yaqin bo'lib, inson ongidagi umumiy timsollarni ifodalaydi.

3. Tushlar arxetip sifatida romanda ko'plab tush ko'rinishlari, ismlar sahnalari orqali mifologik qatlamlar chuqurlashadi. Tushlar voqealarning oldindan ishlab chiqaruvchisi, xotira va vijdonning ichki ovozi bo'lib xizmat qiladi. Bu usul Kafka, Prust, Joys kabi modernist yozuvchilarning asarlarida ham mavjud bo'lgan mifologik-timsoliy konstruksiyalarga o'xshaydi.

Bu obrazlar bir qarashda diniy-ma'naviy kontekstlarda anglashilsa-da, asar zahirida chuqur psixoanalitik, ekzistensialistik, hatto poststrukturalist talqinlarga boy tahlillar mavjud. Misol uchun, “olma” timsoli faqat gunoh ramzi emas – u tanlov, iroda sinovi, inson ongi va quyi ong o'ziga xos to'qnashuv belgisi sifatida ham qaraladi. Ma'bud – diniy yaratuvchi obrazining parodiyasi, ayni paytda zamonaviy jamiyatdagi manipulyator inson timsolidir. Havo – milliy Yevaning diniy arxetipi, balki axloqiy qarorlar oldida zaiflashayotgan shaxsiyat, o'zini anglash yo'lidagi shaxsiy talqin sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, roman tarkibidagi ramziy-majoziy obrazlar faqat milliy yoki diniy vositalar tizimi emas, balki shaxsiy va falsafiy tarkibli

materiallarni ham saqlaydi. Bu esa asarni o'quvchining idrok darajasiga qarab turlicha o'lchash imkonini beradi – klassik adabiyotning obyektiv haqiqatga intiluvchi yo'nalishidan farqli ravishda, N.Eshonqul har bir o'quvchini ramzlar orqali insoniylik, iymon, muhabbat va nafs orasidagi o'ziga xos kurashni ichdan his qilishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dilmurod Quronov. Darslik. Adabiyot nazariyasi asoslari/ Toshkent:Akademnashr, 2018.- 480b.
2. Eshonkul J. Mif va badiiy tafakkur. – T.: Fan, 2019. – 312 b.
3. Hamdam Ulug'bek. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm: o'quv qo'llanma – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 288 b.